ENIGMATIK MATNLAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IMPLITSIT MA'NONI ANGLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
xilolaibroximovatalaba@gmail.com +998995311938
ORCID: 0009-0001-7916-0482

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnning implitsit, ya'ni bevosita aytilmagan ma'nosini anglash ko'nikmasini enigmatik matnlar – topishmoq, metaforik topishmoq, sirli hikoya, masal va ochiq yakunli matnlar vositasida shakllantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi – enigmatik matnlarni yashirin axborot turi va xulosa chiqarish murakkabligiga ko'ra tizimlashtirish hamda ular asosida implitsit ma'noni anglashni bosqichma-bosqich shakllantiruvchi metodikani asoslashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, xalqaro baholash dasturlari (PIRLS, PISA) talablarini kontent-tahlil qilish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijada enigmatik matnlarning beshta turi ular orqali chiqariladigan yashirin axborot, o'quvchidan talab qilinadigan aqliy amal va PIRLS tushunish jarayonlari bilan bog'langan holda tasniflandi; "belgi – taxmin – tekshirish – asoslash – yaratish" bosqichlaridan iborat metodika hamda ko'nikmaning shakllanganlik darajasini baholash mezonlari ishlab chiqildi. Metodika o'zbek xalq topishmoqlari va masallari asosida qurilgan bo'lib, xorijiy tajribadan faqat uning tuzilmasi va baholash tartibi olingan. Xulosada enigmatik matnlarni faqat 1–2-sinflardagi qiziqarli material sifatida emas, balki 2–4-sinflar bo'ylab murakkablashib boruvchi tizim sifatida qo'llash implitsit ma'noni anglash ko'nikmasini maqsadli rivojlantirish imkonini berishi asoslandi.*

Kalit so'zlar: *enigmatik matn, implitsit ma'no, topishmoq, xulosa chiqarish, o'qish savodxonligi, matnni tushunish, boshlang'ich ta'lim, PIRLS, metafora, talqin qilish.*

ФОРМИРОВАНИЕ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ УМЕНИЯ ПОНИМАТЬ ИМПЛИЦИТНЫЙ СМЫСЛ ПОСРЕДСТВОМ ЭНИГМАТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ

Аннотация: *В статье рассматривается проблема формирования у младших школьников умения понимать имплицитный, то есть прямо не выраженный, смысл текста посредством энигматических текстов – загадок, метафорических загадок, таинственных рассказов, басен и текстов с открытым финалом. Цель исследования – систематизировать энигматические тексты по типу скрытой информации и сложности умозаключения и на этой основе обосновать методику поэтапного*

формирования умения понимать имплицитный смысл. В исследовании использованы методы теоретического анализа научно-методической литературы, сравнительного анализа, контент-анализа требований международных программ оценки (PIRLS, PISA) и педагогического моделирования. В результате пять типов энигматических текстов классифицированы во взаимосвязи с извлекаемой скрытой информацией, требуемым мыслительным действием и процессами понимания PIRLS; разработана методика, включающая этапы «признак – догадка – проверка – обоснование – создание», а также критерии оценки уровня сформированности умения. Методика построена на материале узбекских народных загадок и басен, а из зарубежного опыта заимствованы лишь её структура и процедура оценки. Сделан вывод о том, что использование энигматических текстов не только как занимательного материала 1–2 классов, но и как системы, усложняющейся на протяжении 2–4 классов, позволяет целенаправленно развивать умение понимать имплицитный смысл.

Ключевые слова: *энигматический текст, имплицитный смысл, загадка, умозаключение, читательская грамотность, понимание текста, начальное образование, PIRLS, метафора, интерпретация.*

DEVELOPING PRIMARY SCHOOL STUDENTS' ABILITY TO UNDERSTAND IMPLICIT MEANING THROUGH ENIGMATIC TEXTS

Abstract: *The article addresses the problem of developing primary school students' ability to understand the implicit, i.e. not directly stated, meaning of a text through enigmatic texts: riddles, metaphorical riddles, mystery stories, fables and open-ended texts. The study aims to systematise enigmatic texts according to the type of hidden information and the complexity of the required inference and, on this basis, to substantiate a method for the step-by-step development of the ability to understand implicit meaning. The study employed theoretical analysis of research and methodological literature, comparative analysis, content analysis of the requirements of international assessment programmes (PIRLS, PISA) and pedagogical modelling. Five types of enigmatic texts were classified in relation to the hidden information they contain, the mental operation required of the student and the PIRLS comprehension processes; a method comprising the stages "clue – guess – verification – justification – creation" and criteria for assessing the level of skill development were designed. The method is based on Uzbek folk riddles and fables. It is concluded that using enigmatic texts not merely as entertaining material for grades 1–2 but as a system of increasing complexity across grades 2–4 enables the purposeful development of the ability to understand implicit meaning.*

Keywords: *enigmatic text, implicit meaning, riddle, inference, reading literacy, reading comprehension, primary education, PIRLS, metaphor, interpretation.*

KIRISH

Bugungi kunda o‘qish savodxonligi o‘quvchining matndagi tayyor axborotni topa olishi bilan emas, balki matnda bevosita aytilmagan ma’noni anglay olishi bilan baholanmoqda. Xususan, PIRLS 2026 xalqaro tadqiqotining baholash konsepsiyasida matnni tushunishning to‘rt jarayoni ajratilgan bo‘lib, ulardan ikkitasi – oddiy xulosa chiqarish hamda g‘oya va axborotni talqin qilish va integratsiyalash – birgalikda topshiriqlarning 60 foizini tashkil etadi, matnda aniq ifodalangan axborotni topishga esa atigi 20 foiz ajratilgan [2]. PISA dasturida ham o‘qish savodxonligi axborotni topish bilan cheklanmay, matnni tushunish, talqin qilish va baholash qobiliyati sifatida ta’riflanadi [3]. Demak, xalqaro miqyosda o‘qish savodxonligining asosiy o‘zagini implitsit ma’noni anglash ko‘nikmasi tashkil etmoqda.

O‘zbekiston PIRLS 2026 tadqiqotining ishtirokchilaridan biri. Umumiy o‘rta ta’lim uchun qayta ko‘rib chiqilgan davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari loyihasida “O‘qish savodxonligi” fani mohiyatan adabiyotning boshlang‘ich kursiga aylantirilgan, matnni tushunish talablariga esa yaqqol anglashilgan (eksplitsit) va yashirin (implitsit) ma’nolarni anglash, matn tuzilishini tahlil qilish, talqin qilish, refleksiya va baholash bosqichlari kiritilgan [1]. Biroq standartda belgilangan talab o‘z-o‘zidan amaliyotga ko‘chmaydi: implitsit ma’noni anglashni boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga qaysi material asosida, qanday ketma-ketlikda o‘rgatish va natijani qanday baholash masalasi metodik jihatdan hali yetarli ishlab chiqilmagan. Darslardagi savol-topshiriqlarning katta qismi esa hamon matn mazmunini qayta hikoya qilish va unda aniq aytilgan dalillarni topishga yo‘naltirilgan.

Bu muammoni hal qilishda enigmatik matnlar alohida imkoniyatga ega. Topishmoq, sirli hikoya, masal kabi matnlarning butun tuzilishi muhim axborotni ataylab yashirishga qurilgan: o‘quvchi javobga faqat matndagi belgilarni bog‘lash va xulosa chiqarish orqali yetadi. Boshqacha aytganda, enigmatik matnda implitsit ma’noni anglash qo‘shimcha topshiriq emas, balki matnni o‘qishning o‘zidir. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi bunday materialga, ayniqsa topishmoqlarga juda boy. Shunga qaramay, dissertatsiya tadqiqoti doirasida o‘tkazilgan qiyosiy tahlil enigmatik matnlar ko‘pchilik ta’lim tizimlarida asosan 1–2-sinflarda “qiziqarli material” sifatida qo‘llanilishini, keyingi sinflarda ularning kognitiv murakkabligi oshirilmasligini, yondashuv asosan retseptiv bo‘lib, o‘quvchining o‘zi matn tuzish bosqichi deyarli uchramasligini hamda ko‘nikmani baholash vositalari standart darajasida mavjud emasligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotning maqsadi – enigmatik matnlarni yashirin axborot turi va xulosa chiqarish murakkabligiga ko‘ra tizimlashtirish hamda ular asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida implitsit ma’noni anglash ko‘nikmasini bosqichma-bosqich shakllantiruvchi metodikani asoslash. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: implitsit ma’noni anglashning psixologik-pedagogik asoslarini aniqlash; enigmatik matn turlarini PIRLS tushunish jarayonlari bilan bog‘lab tasniflash; ko‘nikmani shakllantirish bosqichlarini ishlab chiqish; uning shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini belgilash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Implitsit ma’noni anglashning nazariy asoslari matnni tushunish psixologiyasida ishlab chiqilgan. V.Kinch modeliga ko‘ra, o‘quvchi matnni tushunganda faqat matndagi fikrlar tizimini emas, balki o‘z bilimlari va xulosalari bilan to‘ldirilgan “vaziyat modeli”ni quradi [5]. Demak, matnda aytilmagan narsani anglash tushunishning qo‘shimcha emas, balki zaruriy sharti hisoblanadi. K.Keyn va Dj.Oukhill tadqiqoti xulosa chiqarish qobiliyati yaxshi tushunishning natijasi emas, balki uning sababi ekanini ko‘rsatgan; matnni yaxshi tushunmaydigan bolalarning xatolari bilim yetishmasligidan emas, o‘qish strategiyasidagi farqlardan kelib chiqishi aniqlangan [6]. Bu xulosa muhim metodik ahamiyatga ega: agar muammo strategiyada bo‘lsa, xulosa chiqarishni maxsus o‘rgatish mumkin. Dj.Oukhill, K.Keyn va K.Elbro ham o‘z qo‘llanmasida xulosa chiqarish ko‘nikmasini maqsadli o‘qitish yo‘llarini tavsiflagan [7]. A.Kispalning adabiyotlar sharhida esa xulosa chiqarish qobiliyati o‘qish mahoratini asosan belgilashi ta’kidlanib, uni o‘qitishning samarali usullari bo‘yicha empirik dalillar hali kamligi qayd etilgan [8]. Enigmatik matnning o‘ziga xos mexanizmini R.Bart “germenevtik kod” tushunchasi orqali izohlagan: matnda jumboq qo‘yiladi, javob esa kechiktiriladi va aynan shu kechiktirish o‘quvchi diqqatini matnga bog‘lab turadi [4]. K.Igan sir va jumboqni bola tafakkurini harakatga keltiruvchi kognitiv vositalardan biri sifatida ko‘rib, undan ta’lim mazmunini loyihalashda foydalanishni taklif etgan [12]. Topishmoqni tushunish bo‘yicha empirik tadqiqotlar orasida H.Purser va hammualliflarining ishi alohida e’tiborga loyiq: 4–11 yoshli bolalarda topishmoqni tushunish bilan undan zavqlanish (kulish, jilmayish) o‘rtasidagi barqaror bog‘liqlik faqat 8 yoshdan keyin kuzatilgan, lug‘at boyligi esa tushunishga mustaqil ta’sir ko‘rsatgan [9]. Bu natijadan ikki xulosa kelib chiqadi: birinchidan, topishmoq bilan kognitiv ish aynan 2–4-sinflarda samarali bo‘ladi; ikkinchidan, bolaning zavqlanishi uning tushunganini anglatmaydi, shuning uchun ko‘nikmani baholashda tushunishni alohida o‘lchash va lug‘at boyligini hisobga olish zarur.

Topishmoq metaforasi bilan ishlash haqida V.Pashko topishmoqni yechayotgan bola metaforaning yashirin ma'nosiga kirib borish uchun turli predmet va hodisalarni solishtirishi, ulardagi o'xshashlikni ko'rishi va ajratib olishi lozimligini ta'kidlaydi [10]. A.A.Nesterenko TRIZ an'anasida topishmoq tuzish modellarini ishlab chiqib, bolani tayyor topishmoqni yechishdan mustaqil topishmoq yaratishga olib boradi [11]. O'zbek folklorshunosligida N.Usmonova topishmoq janri tabiat hodisalari, jonzotlar va buyumlarni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish orqali tasvirlashini, unda metafora va antiteza kabi badiiy vositalar yetakchilik qilishini ko'rsatgan [13]. Ko'nikmani bosqichma-bosqich shakllantirish g'oyasi esa L.S.Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi ta'limotiga tayanadi: bola dastlab kattalar yordamida bajargan aqliy amalni keyinchalik mustaqil bajaradi [14].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, implitsit ma'noni anglash nazariyasi, topishmoqning psixolingvistik tadqiqi va topishmoq tuzish metodikasi alohida-alohida yetarli darajada ishlab chiqilgan. Biroq bu yo'nalishlar o'zbek tilidagi boshlang'ich o'qish savodxonligi kontekstida, milliy folklor materiali asosida yagona metodik tizimga birlashtirilmagan.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: implitsit ma'noni anglash va enigmatik matnlarga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish; turli ta'lim an'analarida enigmatik matndan foydalanish yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish; PIRLS 2026 baholash konsepsiyasi [2] va yangilangan davlat ta'lim standarti loyihasi [1] talablarini kontent-tahlil qilish; metodika va baholash mezonlarini ishlab chiqishda pedagogik modellashtirish. Didaktik material sifatida o'zbek xalq topishmoqlari, ertak va masallardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Birinchi natija – enigmatik matnlar tasnifi. Matnlar ularda yashiringan axborot turi, o'quvchidan talab qilinadigan aqliy amal va PIRLS tushunish jarayoni bo'yicha guruhlandi (1-jadval).

1-jadval

Enigmatik matn turlari va implitsit ma'noni anglash talablari

№	Matn turi	Yashirin element	O'quvchidan talab qilinadigan amal	PIRLS tushunish jarayoni	Sinf
1	Tavsifiy topishmoq	Obyekt nomi	Bir nechta aniq belgini birlashtirib, obyektni aniqlash	Oddiy xulosa chiqarish	2

№	Matn turi	Yashirin element	O‘quvchidan talab qilinadigan amal	PIRLS tushunish jarayoni	Sinf
2	Metaforik topishmoq	Ko‘chma ma’no ortidagi obyekt va o‘xshatish asosi	Metaforani ochish, belgini to‘g‘ri ma’noga o‘girish, so‘ngra xulosa chiqarish	Oddiy xulosa chiqarish; talqin qilish va integratsiyalash	2–3
3	Sirli (detektiv unsurli) hikoya	Voqea sababi, qahramon niyati	Matn bo‘ylab tarqalgan “izlar”ni bog‘lash, sabab-oqibatni tiklash	Oddiy xulosa chiqarish; talqin qilish va integratsiyalash	3–4
4	Masal, allegorik matn	Asosiy g‘oya, axloqiy xulosa	Timsolni hayotiy vaziyat bilan bog‘lash, g‘oyani o‘z so‘zi bilan ifodalash	Talqin qilish va integratsiyalash; baholash	3–4
5	Ochiq yakunli matn	Voqeaning mumkin bo‘lgan davomi, qahramonga baho	Matndagi dalillarga tayanib davomni taklif qilish va asoslash	Mazmun va matn unsurlarini baholash	4

Tasnifning asosiy g‘oyasi shundaki, enigmatik matn turlari bir xil darajadagi material emas, balki xulosa chiqarish murakkabligi ortib boradigan zinapoya hosil qiladi. Tavsifiy topishmoqda o‘quvchi bir nechta aniq belgini birlashtirib, bitta obyektga keladi – bu PIRLS’dagi oddiy xulosa chiqarish darajasiga mos. Metaforik topishmoqda esa belgilarning o‘zi ko‘chma ma’noda berilgan, ya’ni o‘quvchi avval metaforani ochishi, so‘ngra xulosa chiqarishi kerak. Masal va ochiq yakunli matnlarda yashirin element endi alohida predmet emas, balki g‘oya, baho yoki mumkin bo‘lgan davom bo‘lib, bu talqin qilish va baholash jarayonlariga to‘g‘ri keladi. Shu tariqa sinf oshgan sari faqat matn hajmi emas, balki yashirin ma’noning abstraktlik darajasi ham ortib boradi.

Ikkinchi natija – implitsit ma'noni anglashni shakllantirishning besh bosqichli metodikasi (2-jadval). Bosqichlar xulosa chiqarish strategiyasini o'quvchi uchun ko'rinadigan va takrorlanadigan amallar ketma-ketligiga aylantiradi.

2-jadval

Implitsit ma'noni anglashni shakllantirish bosqichlari

Bosqich	O'quvchi faoliyati	O'qituvchining yo'naltiruvchi savoli	Kutilgan natija
1. Belgi	Matndagi aniq belgilarni ajratadi va sanab chiqadi	"Matnda nima haqida aniq aytilgan?"	Belgilar ro'yxati
2. Taxmin	Belgilarga tayanib bir yoki bir nechta taxmin aytadi	"Bu nima (kim) bo'lishi mumkin?"	Taxminlar to'plami
3. Tekshirish	Har bir taxminni barcha belgilarga solishtiradi, mos kelmaganini rad etadi	"Hamma belgilar bu javobga mos keladimi?"	Asosli tanlangan javob
4. Asoslash	Javobini matndagi so'zlar bilan isbotlaydi, sinfdoshlariga tushuntiradi	"Qaysi so'zlar seni bunga ishontirdi?"	Og'zaki asoslangan javob
5. Yaratish	Shu qolip asosida o'z topishmog'ini yoki enigmatik matnini tuzadi	"Endi sen ham biror narsani yashirib, topishmoq tuz"	O'quvchi yaratgan matn

Bosqichlarning qanday ishlashini xalq topishmog'i misolida ko'rsatamiz: "Bir daraxtning o'n ikki shoxi bor, har shoxida o'ttiz bargi bor, har bargining bir yuzi oq, bir yuzi qora". Birinchi bosqichda o'quvchilar matndagi belgilarni ajratadi: o'n ikki, o'ttiz, oq va qora. Ikkinchi bosqichda taxminlar aytiladi – bolalar odatda avval haqiqiy daraxt haqida o'ylaydi. Uchinchi bosqichda o'qituvchi "Bir yuzi oq, bir yuzi qora barg bo'ladimi?" degan savol bilan taxminni belgilarga solishtirishga undaydi va o'quvchi "daraxt" so'zi ko'chma ma'noda ishlatilganini anglaydi. Shundan so'ng raqamlar yangi ma'no kasb etadi: o'n ikki – oylar, o'ttiz – kunlar, oq va qora – kun va tun. To'rtinchi bosqichda o'quvchi javobini aynan shu moslik bilan asoslaydi. Beshinchi bosqichda esa shu qolip asosida, masalan, haftani yoki sutkani yashirib, o'z topishmog'ini tuzadi.

Ko'rinib turibdiki, bitta qisqa topishmoq doirasida o'quvchi aniq belgini topishdan metaforani ochish va o'z matnini yaratishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi.

Beshinchi bosqichni ishlab chiqishda A.A.Nesterenko modellari [11] asos qilib olindi, biroq rus an'anasidagi "Qanday? – Yana nima shunday bo'ladi?" qolipi o'zbek topishmog'iga xos sifatlash va jonlantirish qoliplari bilan almashtirildi: o'quvchi obyektni nomlamasdan, uni jonli mavjudotdek tasvirlaydi yoki uning eng muhim belgisini kutilmagan o'xshatish orqali beradi. Shu bilan metodikaning tuzilishi xorijiy tajribadan olinsa-da, material va obrazlar to'liq milliy bo'lib qoladi.

Uchinchi natija – ko'nikmaning shakllanganlik darajasini baholash mezonlari (3-jadval).

3-jadval

Implitsit ma'noni anglash ko'nikmasining shakllanganlik darajalari

Daraja	Ball	Ko'rsatkichlar
Past	0	Faqat matnda aniq aytilgan belgini takrorlaydi; javobni tasodifiy taxmin qiladi va asoslay olmaydi.
O'rta	1	Tavsifiy topishmoqni to'g'ri yechadi, ammo metaforik belgilarni to'g'ri ma'noda tushunadi; javobini bitta belgiga tayanib asoslaydi.
Yaxshi	2	Metaforani ochadi, javobini bir nechta belgi bilan asoslaydi; masal g'oyasini yordamchi savollar orqali aniqlaydi.
Yuqori	3	Matndagi barcha belgilarni bog'laydi, muqobil javoblarni dalil bilan rad etadi, masal g'oyasini mustaqil ifodalaydi va shu turdagi o'z matnini yarata oladi.

Baholashda H.Purser va hammualliflari tadqiqotidan kelib chiqqan ikki talab hisobga olindi [9]: topshiriqni tushunish va undan zavqlanish alohida qayd etiladi, o'quvchilarning lug'at boyligi esa natijalarni talqin qilishda nazorat o'zgaruvchisi sifatida olinadi. Aks holda lug'ati boy, ammo xulosa chiqarish strategiyasi shakllanmagan o'quvchini aksincha holatdagi o'quvchidan farqlab bo'lmaydi.

Olingan natijalarni mavjud tadqiqotlar bilan solishtirsak, quyidagilar ko'zga tashlanadi. Birinchidan, metodika K.Keyn va Dj.Oukhill xulosasiga [6] mos ravishda xulosa chiqarishni bolaning bilim zaxirasiga emas, balki o'qish strategiyasiga bog'laydi: "belgi – taxmin – tekshirish – asoslash" ketma-ketligi aynan shunday strategiyaning ochiq, o'rgatiladigan shaklidir. Ikkinchidan, A.Kispal qayd etgan bo'shliq – xulosa

chiqarishni o'qitish usullari bo'yicha dalillarning kamligi [8] – taklif etilgan metodikani tajriba-sinovda tekshirish zaruratini ko'rsatadi. Uchinchidan, PIRLS 2026 konsepsiyasida xulosa chiqarish va talqin qilish jarayonlariga ajratilgan katta ulush [2] hamda yangilangan standart loyihasidagi talablar [1] enigmatik matnlarni 2–4-sinflar bo'ylab tizimli qo'llash amaliy jihatdan ham asosli ekanini tasdiqlaydi.

Milliy materialdan foydalanish masalasi alohida ahamiyatga ega. Topishmoqning didaktik kuchi tanish narsani notanish tomondan ko'rsatishida. Xorijiy topishmoqni tarjima qilib berish bolani notanish reallikka murojaat qilishga majbur qiladi va bu mexanizmni buzadi. Shuning uchun metodikada xorijdan faqat ish tuzilmasi va baholash tartibi olinib, matnlar o'zbek folklori va o'quvchilarning o'zlari yaratgan topishmoqlardan tanlandi. Shu bilan birga, ushbu maqolada metodika nazariy jihatdan asoslandi; uning samaradorligi tajriba va nazorat sinflarida o'tkaziladigan tajriba-sinov ishlarida boshlang'ich va yakuniy diagnostika natijalarini solishtirish orqali tekshiriladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Implitsit ma'noni anglash xalqaro baholash dasturlarida ham, yangilangan milliy standart loyihasida ham o'qish savodxonligining markaziy talabiga aylangan, ammo uni boshlang'ich sinfda shakllantirish metodikasi yetarli ishlab chiqilmagan. Enigmatik matnlar bu ko'nikmani shakllantirish uchun tabiiy material hisoblanadi, chunki ularda yashirin ma'noni topish matnni o'qishning o'zi bilan bir.

Enigmatik matnlarning beshta turi – tavsifiy topishmoq, metaforik topishmoq, sirli hikoya, masal va ochiq yakunli matn – xulosa chiqarish murakkabligi ortib boruvchi tizim hosil qiladi va 2–4-sinflar bo'ylab taqsimlanishi mumkin. "Belgi – taxmin – tekshirish – asoslash – yaratish" bosqichlaridan iborat metodika o'quvchini tayyor topishmoqni yechishdan o'z matnini yaratishgacha olib boradi, ishlab chiqilgan baholash mezonlari esa ko'nikmaning shakllanganlik darajasini to'rt daraja bo'yicha aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotning keyingi bosqichida metodika tajriba-sinov ishlari orqali sinovdan o'tkaziladi va natijalar matematik-statistik usullar bilan tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Jalilov K. Maktablar uchun qayta ko'rib chiqilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining yangiligi nimada? 1-qism // Gazeta.uz. – 2026. – 31 avgust. – URL: https://www.gazeta.uz/oz/2026/08/31/school-program/ (What is new in the revised state educational standards and curricula for schools? Part 1).

2. Von Davier M., Kennedy A. (Eds.). PIRLS 2026 Assessment Frameworks. – Amsterdam: International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), 2024. – URL: https://timssandpirls.bc.edu/pirls2026/frameworks/

3. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2019.

4. Barthes R. S/Z. – Paris: Éditions du Seuil, 1970.

5. Kintsch W. Comprehension: A Paradigm for Cognition. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

6. Cain K., Oakhill J. Inference making ability and its relation to comprehension failure in young children // Reading and Writing. – 1999. – Vol. 11, № 5–6. – P. 489–503.

7. Oakhill J., Cain K., Elbro C. Understanding and Teaching Reading Comprehension: A Handbook. – London: Routledge, 2015.

8. Kispal A. Effective Teaching of Inference Skills for Reading: Literature Review. Research Report DCSF-RR031. – Slough: National Foundation for Educational Research, 2008.

9. Purser H.R.M., Van Herwegen J., Thomas M.S.C. The development of children's comprehension and appreciation of riddles // Journal of Experimental Child Psychology. – 2020. – Vol. 189. – Article 104709. – DOI: 10.1016/j.jecp.2019.104709.

10. Пашко В. Роль загадки в развитии метафоричности речи детей дошкольного возраста // Пралеска. – 2014. – № 11. – С. 12. (The role of riddles in developing metaphorical speech of preschool children).

11. Нестеренко А.А. Страна загадок. О развитии творческого мышления детей. ТРИЗ-ОТСМ. – СПб.: Весь, 2020. – 192 с. (The Land of Riddles: On developing children's creative thinking. TRIZ-OTSM).

12. Egan K. The Educated Mind: How Cognitive Tools Shape Our Understanding. – Chicago: University of Chicago Press, 1997.

13. Usmonova N. Topishmoq poetikasi // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Vol. 2, № 12. – B. 303–309. (Poetics of the riddle).

14. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.; Л.: Соцэкгиз, 1934. (Thinking and speech).